

O‘zbek milliy musiqa san’ati kelib chiqishi va uning shakllanishi

Kamilova Jasmina Nuriddin qizi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Xalq ijodiyoti (ashula va raqs) 70211701

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy musiqa san’atining kelib chiqishi, tarixiy ildizlari hamda shakllanish bosqichlari tahlil etiladi. Unda qadimiy davrlardan boshlab xalq og‘zaki ijodi, marosim va urf-odatlar bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan musiqiy merosning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada o‘zbek milliy musiqasining rivojlanishida ijtimoiy-madaniy omillar, turli davrlardagi musiqiy yo‘nalishlar va ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Muallif milliy musiqa san’atining xalq ruhiyati, estetik qarashlari va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim omil ekanligini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: Xalq qo‘shiqlari, mehnat qo‘shiqlari, marosim aytimlari, urf-odat, hunarmandchilik, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino.

Kirish

O‘zbek milliy musiqa san’ati Markaziy Osiyoning boy tarixiy-madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. U xalqning ijtimoiy hayoti, qarashlari, diniy e’tiqodlari va tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Musiqa nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki tarixiy xotira va ma’naviy merosni avlodlardan avlodga yetkazuvchi muhim omildir. Dastlab musiqa alohida san’at turi sifatida emas, balki mehnat jarayonlari, diniy marosimlar va ijtimoiy urf-odatlar bilan uzviy bog‘liq holda mavjud bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan musiqa asta-sekin mustaqil tizim sifatida ajralib chiqib, o‘zining ichki qonuniyatlari va badiiy mezonlariga ega bo‘la boshlagan. Shu jihatdan qaraganda, o‘zbek musiqasi evolyutsion

rivojlangan bo'lib, unda tarixiy uzviylik va an'anaviylik muhim o'rin egallaydi. O'zbek musiqasining shakllanishida xalq og'zaki ijodi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xalq qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, marosim aytimlari, laparlar, yallalar va dostonlar musiqaning dastlabki va eng barqaror qatlamini tashkil etadi. Aynan shu qatlam orqali milliy ohang va ijrochilik an'analari shakllangan. Keyinchalik professional musiqa shakllari ham aynan shu xalqona musiqa asosda rivojlangan. Shu sababli xalq musiqasi o'zbek milliy musiqasi shakllanishida poydevor vazifasini bajargan.

O'zbek xalq og'zaki ijodining qadimiy namunalaridan birini tashkil etgan mehnat qo'shiqlari inson falijatining turli jabhalari masalan, yer haydash, tegirmon yanchish, ip yigirish va shunga o'xshash mehnat jarayonlarida ijro etilgan. Bajarilayotgan mehnat turiga ko'ra bu aytimlarni uch guruhga bo'lish mumkin. Chorvadorlik qo'shiqlari, dehqonchilik qo'shiqlari va hunarmandchilik qo'shiqlari. Mehnat qo'shiqlari mehnat jarayonini bir maromda uyushqoqlik bilan bajarishga ko'mak bo'lgan hamda mehnatchi qalbiga ko'tarinkilik kayfiyatini bag'ishlab, unga "ruhiy dalda" bo'lib xizmat qilgan. Chorvadorlik qo'shiqlari aholining chorvachilik bilan bog'liq turmush tarzi va mehnat jarayonida shakllangan. Ularning bizgacha yetib kelgan namunalari asosan «sog'im qo'shiqlaridan» iborat, ya'ni shu aytimlar sigir, tuya, echki kabi uy hayvonlarini sog'ish paytida kuylangan. Dehqonchilik qo'shiqlari dehqonchilik mehnatining turli faoliyatlari bilan bog'liq holda ijro etilgan. Jumladan, yer haydash paytida, hosilni o'rib olishda va xirmon yanchishda dehqon tomonidan aytilgan. Hunarmandchilik qo'shiqlarining asosiy qismini charhda ip yigirish, shuningdek, xotin-qizlar ijodiga mansub gilam to'qish, do'ppi tikish kabi mehnat vaziyatlari bilan bog'liq aytimlar tashkil etadi. Xotin-qizlar ip yigirish, gilam to'qish, do'ppi tikish singari davomli mehnatni bajarar ekanlar, ba'zan beixtiyor shaxsiy hayotlari bilan bog'liq turli ruhiy holatlarini, ichki kechinma va dardlarini qo'shiq orqali ayta boshlaydilar. Shu tariqa mehnat mavzusida boshlangan ayrim qo'shiqlarda goho ayollarning ichki kechinmalari ham namoyon bo'la boshlagan.

O'zbek xalq musiqa merosida marosim qo'shiqlari alohida o'rin tutadi. Ular xalqning kundalik hayoti, urf-odatlarini, e'tiqodlari va an'analari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Marosim qo'shiqlari muayyan voqea yoki marosim jarayonida ijro etiladi. O'zbek xalqining marosim qo'shiqlari oddiy qo'shiqlar emas, balki xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy hayotining ajralmas qismi sifatida baholash mumkin. Chunki bu qo'shiqlar muayyan marosim bilan bog'liq holda paydo bo'lgan va har biri o'ziga xos vazifani bajaradi. Masalan, to'y marosimlarida ijro etiladigan qo'shiqlar quvonch va ezgu tilaklarni ifodalasa, motam marosimlaridagi qo'shiqlar insonning ichki kechinmalarini, qayg'u va iztirobini ochib beradi. Shu jihatdan qaraganda, marosim qo'shiqlari insonning turli hayotiy holatlarini musiqiy tarzda ifodalovchi vosita hisoblanadi. Marosim qo'shiqlarining eng muhim jihatlaridan biri ularning an'anaviyligidir. Ular yozma manbalardan ko'ra ko'proq og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tib kelgan. Natijada har bir avlod bu qo'shiqlarga o'z ruhiyati va davr talabi asosida ma'lum darajada o'zgarish kiritgan bo'lsa-da, ularning asosiy mazmuni va vazifasi saqlanib qolgan. Bu esa marosim qo'shiqlarining uzoq umr ko'rishiga sabab bo'lgan omillardan biridir. Shuningdek, marosim qo'shiqlari faqat musiqa bilan cheklanib qolmay, balki harakat, marosim amallari va ba'zan raqs elementlari bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Bu esa ularning qadimgi ildizlarga ega ekanligidan dalolat beradi. Aynan shu xususiyat marosim qo'shiqlarini boshqa musiqiy janrlardan ajratib turadi. Bundan tashqari, marosim qo'shiqlarining ijtimoiy ahamiyati ham katta. Ular nafaqat zavq bag'ishlaydi, balki jamiyatni birlashtirish, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash vazifasini ham bajaradi. Masalan, to'y marosimlarida jamoaviy tarzda kuylanishi insonlar orasida yaqinlik va birdamlik hissini kuchaytiradi.

O'zbek musiqasi alohida san'at turi sifatida emas, balki mehnat jarayonlari va turli marosimlardagi urf-odatlar bilan shakllanib, vaqt o'tishi bilan musiqa asta-sekin mustaqil tizim sifatida ajralib chiqib, o'zining ichki qonuniyatlari va badiiy mezonlariga ega bo'la boshlagan. O'zbek musiqasining shakllanishida o'rta asrlarda yuzaga kelgan ilmiy-nazariy

qarashlar alohida ahamiyatga ega. Bu davrda musiqa oddiy amaliy san'atdan ilmiy asoslangan tizimga aylangan. Xususan, Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar tomonidan musiqa nazariyasining ishlab chiqilishi musiqa rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Natijada tovush tizimi, lad, ritm va shakl kabi elementlar ilmiy jihatdan asoslab berildi, bu esa professional musiqa san'atining shakllanishiga zamin yaratdi. O'zbek musiqasining shakllanish jarayonida maqom tizimining yuzaga kelishi muhim burilish nuqtasi hisoblanadi. Ayniqsa, Shashmaqom tizimi milliy musiqaning eng mukammal ko'rinishi sifatida shakllangan. Unda xalq musiqasi, saroy an'analari va nazariy bilimlar o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Maqom san'ati o'zining murakkab tuzilishi, chuqur falsafiy mazmuni va yuqori ijrochilik talablari bilan ajralib turadi hamda o'zbek musiqasining ko'p asrlik rivojlanish jarayonining yakuniy natijasi sifatida baholanadi. Umuman olganda, o'zbek milliy musiqasining shakllanishi ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, u xalq ijodi, diniy-falsafiy qarashlar, ilmiy tafakkur va professional ijrochilik an'analari uyg'unligi asosida yuzaga kelgan. Bu jarayon davomida musiqa o'zining milliy xususiyatlarini saqlab qolgan holda, yangi shakl va mazmunlar bilan boyib borgan. Natijada o'zbek musiqasi bugungi kunda ham o'zining tarixiy ildizlariga tayanib, zamonaviy rivojlanish yo'lidan bormoqda.

Xulosa

Maqolada o'zbek milliy musiqa san'ati asrlar davomida shakllanib, xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelganligi tahlil qilindi. Uning ildizlari qadimiy davrlarga borib taqalib, dastlab marosim qo'shiqlari, mehnat va mavsumiy kuy-qo'shiqlar orqali namoyon bo'lgan bo'lsa, keyinchalik murakkab janrlar, xususan, maqom san'ati, an'anaviy cholg'u ijrochiligi va bastakorlik yo'nalishlari shakllanib bordi.

Milliy musiqa san'ati turli tarixiy bosqichlarda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, madaniy aloqalar va ustoz-shogird an'analari ta'sirida boyib, takomillashib bordi. Ayniqsa, u xalqning ruhiy olami, ichki kechinmalari, estetik didi va badiiy tafakkurini ifodalovchi

muhim vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaraganda, o‘zbek musiqasi nafaqat san’at turi, balki milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlikni ta’minlovchi muhim omildir.

Bugungi kunda ham o‘zbek milliy musiqa san’ati zamonaviy jarayonlar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanmoqda. An’anaviy merosni asrab-avaylash, uni yosh avlodga yetkazish hamda yangi ijodiy yondashuvlar orqali boyitish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bois, milliy musiqa san’atini chuqur o‘rganish, targ‘ib qilish va rivojlantirish kelajak avlodlar uchun muhim ilmiy va madaniy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.A.Ibrohimov, G‘.M.Xudoyev. Musiqa tarixi. Toshkent-2018
2. Adxamjon Ashirov. “Avesto”dan meros marosimlar. Toshkent-2001
3. O.A.Ibrohimov. O‘zbek xalq musiqa ijodi. Toshkent-2006